



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, til ta'limida elektron qurilmalardan inetgratsiyalashgan holatda darsni tashkil etilishi tilni imkoniyatlarini bilib borish, madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy qamrab olishni jadallashtirish uchun moslashuvchan imkoniyatni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot interaktiv, maxsus moslangan yoki individual o'ziga xoslik qo'shilgan va foydalanish imkoniyati joiz bo'lgan tajribani ta'minlash, til o'rganishdagi kamchiliklarga barham berish uchun raqamli dasturlarning imkoniyati va bilimga yo'naltirilgan salohiyatni ko'rsatib beradi. Natijalar raqamli vositalardan foydalanish uchun ma'lum bir iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etishdagi muammolarni hal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Hamda pedagoglar ushu ta'lim jarayonlarida raqamli unsurlardan adolatli tarzda yondashmoqliklari keraligi ta'kidlanadi. O'quvchilarning aqliy jihatdan intellektual rivojlanishida, ayniqsa, ko'z bilan ilg'ab, eshitish salohiyatini rivojlantirib, rang-baranglikni ko'rsata bilish orqali haqiqiy kognitiv bilimga erishishlari mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzoqova M.A. Raqamli texnologiyalar orqali ona tili ta'limini modellashtirish va tashkil etish mexanizmlari. "Экономика и социум" №12(127)-1. 2024. www.iupr.ru.
2. Moinian, F., Kjällander, S., & Dorls, P. (n.d.). Mother tongue language teaching with digital tablets in early childhood education: A question of social inclusion and equity. Retrieved from <https://www.hekupu.ac.nz/sites/default/files/2017-10/Mother-tongue-language-teaching>.
3. Neumann, M. M. (2020). The Use of Digital Technologies to Develop Young Children's Literacy Skills: A Systematic Review. *SAGE Open*, 10(2).
4. Warschauer, M. (2006). Laptops and Literacy: Learning in the Wireless Classroom. Teachers College Press.
5. Tondeur, J., Van Braak, J., Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. (2021). Understanding the relationship between teachers' pedagogical beliefs and technology use in education: a systematic review of qualitative evidence. *Educational Technology Research and Development*, 69, 265–290.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/HGOW5783

HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR

Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

yulduz1999.09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanishning muhim o'rni haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bu texnologiyani o'quvchilarda shakllantirish uchun yaratiladigan mashq va topshiriqlarda qaysi yondashuvlarga tayanish kerakligiga :r tavsiyalar ko'rsatilgan. Har bir yondashuv mazmunidan kelib chiqqan holda ayrim topshiriqlar tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, kompetensiya, subyekt-subyekt, integratsiya, xalqaro baholash dasturlari.



Аннотация. В этой статье представлена информация о важной роли использования технологии совместного обучения на уроках родного языка. В нем также даются рекомендации о том, какие подходы следует использовать в упражнениях и заданиях, созданных для развития этой технологии у учащихся. Представлен анализ некоторых задач на основе содержания каждого подхода.

Ключевые слова: коммуникация, компетентность, субъект-субъект, интеграция, международные программы оценки.

Abstract. This article provides information on the importance of using collaborative learning technology in mother tongue classes. Also, recommendations on which approaches should be relied on in the exercises and tasks created for the formation of this technology in students are indicated. Based on the content of each approach, some assignments are analyzed.

Key words: communication, competence, subject-subject, integration, international assessment programs.

Hamkorlik pedagogikasi bugungi kundagi eng dolzarb va muhim texnologiyalardan biri bo'lganligi sababli juda ko'plab mamlakatlarda uni shakllantirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Olib borilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari natijasida ona tili darslarida nutqiy hamda lingvistik ko'nikmalarni hamkorlik usullari orqali shakllantirishga oid har bir mamlakatning o'ziga xos yondashuv va tamoyillari ishlab chiqilib ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Eng avvalo, bugungi kunda til ta'limi bilan bog'liq bo'lgan umumiy yondashuvlarning mohiyati bilan qisqacha tanishib, shu orqali mavzu :rasida hamkorlik texnologiyasiga oid bo'lgan xususiyatlarni alohida ta'kidlab o'tishni lozim deb topdik.

Bugungi kunda til ta'limida *kommunikativ yondashuv, integrativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi, farqli yondashuvlar* mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos jihatlari bilan ustunlikka ega

Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi tildan amaliy foydalana olish, real vaziyatda nutqni tushunish va o'z fikrini ifodalay olish bilan belgilanadi. Hamkorlik texnologiyasini rivojlantirishda aynan shu yondashuvga ko'proq tayanamiz. Chunki kommunikativ yondashuvda tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Ma'lum vaziyatda qanday gapirish to'g'ri bo'ladi, ya'ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkinligi orqali til qonuniyatlari tushuntiriladi [2]. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda og'zaki va yozma nutq teng ravishda rivojlantiriladi. Bilamizki, faqatgina og'zaki nutq ustida ko'p ishlash orqali yozma nutq rivojlanib qolmaydi, chunki yozma va og'zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmlarning ishlashi orqali ta'minlanadi.

2022-yil yangi nashrdan chiqqan ona tili darsliklarida ham kommunikativ yondashuvdan foydalangan holda bir qancha topshiriqlar keltirilgan. Hozir ayrimlarini tahlil qilamiz.





Guruhlarga bo'lining. Sinfingizda birgalikda tashkil etilgan tadbir, bayram yoki barcha qatnashgan tug'ilgan kun haqida nutq tayyorlang. Har bir guruh o'zi tayyorlagan nutqni boshqalarga so'zlab beradi.

Berilgan ushbu topshiriq kommunikativ yondashuvning mazmuniga asoslanib yaratilgan, o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar dastlab guruhlariga bo'linadi, so'ngra ularning har biriga istagan bayram tadbirini tanlab, og'zaki nutq tayyorlashlari aytiladi. So'ng har bir guruhning nutqi tinglanib, munosabat bildirilishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – pedagogik hamkorlikda o'zaro bog'liq tushunchalar, g'oyalar va harakat usullari tizimiga tayangan holda bolaning shaxsini, o'z-o'zini bilish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga imkon beradigan uslubiy yo'nalish. Bu yondashuvda ta'lim shaxsga qaratilgan bo'ladi, ya'ni bu jarayonda insonning qadr-qimmatiga, intellektual salohiyatiga, dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga ko'proq ahamiyat beriladi. Shundan kelib chiqqan holda dars jarayoni, metod va vositalar tanlanadi. *"Subyekt-subyekt"* munosabati o'rnatiladi. Bu munosabatni ochib berish uchun aynan biz hamkorlik usullaridan foydalanishimiz zarur. Chunki, ona tili darslarida og'zaki va yozma nutq, o'qib tushunishni rivojlantirishda shu yondashuvning mazmuniga tayanamiz, o'quvchilar bunday yondashuvga asoslangan topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlay oladi, faol o'rganuvchi bo'lib, dars jarayoning subyektiga aylanadi.



Guruhlarga bo'lining. Tasavvur qiling, har biringiz tuman deputatisiz. Hokim ba'zi masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Siz ulardan maqbulini tanlashingiz, zarur o'rinda hokimning xatosini tushuntirishingiz kerak. Bunda o'qituvchingiz hokim rolini o'ynaydi. Har bir guruh alohida deputatlar jamoasini tashkil qiladi va fikr bildiradi.



1 milliard so'mga yo'l chetiga gul ekish



1 milliard so'mga maktablarga kompyuter olib berish



1 milliard so'mga haykal o'rnatish



1 milliard so'mga kasalxona qurish



100 million so'mga kutubxona qurish



50 million so'mga favvora qurish

211-bet, 6-sinf. Mazkur topshiriqni bajarishda o'qituvchi sinfda hokim vazifasini bajarib, har bir o'quvchiga familiyasi bilan deputat deb murojaat qilishi, darslikda berilgan masalalarni birma-bir ko'rsatib tanishtirishi, so'ngra har bir o'quvchidan ushbu masalalar yuzasidan fikr so'rashi lozim. O'quvchilar ushbu masalalarni qo'llab-quvvatlashi, tanqid qilishi mumkin. Asosiy e'tibor maqbullar ichidan muqobilini tanlab, uni o'z fikrlari bilan asoslay olishiga qaratiladi. Bu topshiriq yordamida kelajakda o'quvchi biron bir lavozim egasi bo'lganda duch keladigan muammolar va ularga qanday qilib yechim topishni,



muhimni nomuhimdan ajrata olishni o'rganadi. Ya'ni shaxsning ma'lum bir ehtiyojlarini to'ldirish uchun xizmat qila oladi.

Til ta'limida *faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv*ning ham o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, o'qib tushunish va yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish jarayoni o'quvchining tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, taqqoslash, xulosa chiqarish kabi faoliyati bilan juda bog'liqdir. Shuning uchun til ta'limi ham aynan ma'lum bir faoliyat :rasida o'qitilib borilsa maqsadga muvofiqdir.

K.Mavlonova ham til ta'limi bu yondashuv asosida olib borilishi kerakligi bo'yicha fikr bildirib, "Ona tili" va "O'zbek tili" darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning aksariyati o'quvchini o'ylash, izlash va tahlil qilishga emas, balki lisoniy hodisani mexanik tarzda aniqlashga qaratilganligini aytadi, matn yaratish va o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish uchun tahliliy faoliyat alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [5].



Uch guruhga bo'ling. Matnda aks ettirilgan holatni sahnalashtirib berishingiz kerak. Buning uchun dastlab ssenariy yozing. Qahramonlar qanday harakat qiladi, qaysi harakatni bajarayotganda qaysi gapni aytadi – bularning hammasi ssenariyda aks etishi kerak.



Matndagi olinma so'zlarni daftaringizga yozing. Ular ishtirokida gap tuzing.

197-bet, 7-sinf. Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar guruhlariga bo'linadi hamda berilgan matnga tayanib undagi holatni sahnalashtirib berishlari kerak bo'ladi. Bu orqali o'quvchilarda voqea-hodisalarni ketma-ket joylashtirish, o'z qobiliyatlarini namoyon eta olish faoliyati rivojlantiriladi.

Integrativ yondashuv og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va yetarlicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Ma'lumki, ona tili butun borliqni: tabiatni, jamiyatni, fanlarni, o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantiriladi. O'quvchi ona tili fanini o'zlashtirish jarayonida, uni turli ijtimoiy munosabatlarda qo'llashni o'rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, siyosat, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o'zlashtirishda til omilini his qiladi. Ta'lim oluvchi muayyan soha mutaxassisiga aylanganida maktabda olgan hayotiy ko'nikmalari asosida o'zbek tilida ish yuritishga, tanqidiy tafakkur bilan nutqiy muloqotga kirishishga tayyor bo'ladi.

A.Disterverg ta'biri bilan aytganda: "O'n xil turli-tuman predmetni bir tomondan qarab o'rgatgandan ko'ra, birgina predmetga o'n tomondan qarab o'rgatishning foydasi ko'proq".

6-sinf darsligida berilgan quyidagi topshiriq integrativ yondashuv mazmunidan kelib chiqib yaratilgan. Bu topshiriqlarda sohalararo integratsiya va og'zaki va yozma nutq integratsiyasi namoyon bo'lgan.



 Berilgan rasm va ma'lumotlarning mazmunini sinfda muhokama qiling. Mahsulot turlarining nomi, qanday ishlab chiqarilishi, odamlarga nega kerakligini ayting.



Oziq-ovqat va ichimliklar



Xomashyo



Yonilg'i



Kimyoviy moddalar



Tayyor mahsulotlar



Sanoat mollari



Xizmatlar



Mashina va uskunalar



Oltin va rangli metallar

98-bet, 6-sinf. Ushbu topshiriqda import va eksport qilinadigan asosiy mahsulot turlari rasmlar bilan berilgan. O'quvchilar rasmlar bilan tanishgan holda ushbu mahsulot turlarining odamlarga zarurati, qanday ishlab chiqarish mumkinligi haqida munosabat bildirishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchilar bitta mahsulot turini tahlil qilishlari ham mumkin. Asosiy e'tibor fikrlarini aniq, ketma-ketlikda ifodalab berishlariga qaratiladi. Bu topshiriqda metallurgiya, yengil sanoat, kimyo kabi fanlar bilan integratsiya qilingan. *Kashfiyotchilik yondashuvida* asosan o'quvchini muayyan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, yuzaga kelgan muammolarni hal qila olish, mavjud holatdan va vositalardan foydalangan holda kashf qilish, yaratish, bir so'z bilan aytganda kreativlik xususiyatlarining shakllanib va rivojlanib borishida juda muhim. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi ham o'quvchini kundalik vaziyatlarga tayyorlash, ularning turli faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yangi g'oyalar, takliflarni berish malakalarini rivojlantirib borishdan iborat. Kreativ qobiliyatni shakllantirish va baholash xalqaro baholash dasturlari (PISA) ning ham muhim mezoni sanaladi. Ona tili fani boshqa barcha fanlarni o'zlashtirish uchun kalit vazifasini bajarar ekan, ushbu jarayonda qo'llaniladigan ayrim metodik tadbirlar (hikoyani mustaqil davom ettiring, berilgan mavzu :rasida o'z g'oyalaringiz bilan bo'lishing, taqdimot tayyorlang, ma'lumotlarni tasnif qilish yoki guruhlashda o'ziga xos yondashuv, jadvallar, diagrammalar yarata olish) kashfiyotchilik bilan ham bog'lanadi.



Guruhlarga bo'ling. Tasavvur qiling, sport klubi ochdingiz. Sport klubining reklama banneri hamda to'garaklar e'lonini tayyorlang. Ko'makchi va bog'lovchilardan foydalaning.

1. Sport klubining reklama bannerini tayyorlang.
2. Sport klubidagi to'garaklar haqida e'lon bering.

62-bet, 7-sinf. Mazkur topshiriq o'quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O'quvchilar berilgan savollar asosida ma'lumot tayyorlab kelishlari hamda bu ma'lumotlariga mos bog'lovchi va ko'makchilardan foydalanishlari lozim. O'qituvchi tomonidan topshiriqni bajarish uchun yo'nalish berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, sport klubiga oid bannerlarni qidirib topish, ularda nima aks etgani bilan tanishish, so'ngra o'z qarashlari asosida banner matni yaratishlari mumkinligi aytiladi. Bu jarayonda



o'quvchilar guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga nom beriladi hamda tayyorlangan materiallar birgalikda tahlil qilinib, eng yaxshi jamoa rag'batlantiriladi. 2017-yilda ta'lim tizimiga kirib kelgan *kompetensiyaviy yondashuvning* ham til ta'limi bilan bog'liq bir qancha afzalligi mavjud bo'lib, tilshunos olim B.Mengliyev til ta'limi maqsadlariga mos holda ikki turdagi: muloqot va fikrlash kompetensiyalarini alohida ajratib ko'rsatganlar. Xususan, fikrlash kompetensiyasida mustaqil va ijodiy tafakkur qilish masalasi muhim ekanligini, bunday malakalarni shakllantirishda esa ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlar mustaqil, ijodiy izlanishga asoslanishi, kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, umumiylikni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, aloqadorliklarni ochish, amalda qo'llash bilan bog'liq topshiriqlarning kiritilishi shart ekanligini aytganlar. O'quvchi izchil ketma-ketlikdagi bu amaliyotni bajarishi uchun esa darslik uchun yordamchi vositalar (lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar, matnlar to'plami) zarurligini eslatib o'tganlar [6]. Olim tomonidan keltirilgan ushbu fikrlar aynan hamkorlik usullarida nutqiy hamda lingvistik ko'nikmalarni egallash jarayonida shakllantiriluvchi kompetensiyalar bilan hamohang ekanligi, mana shunday kompetensiyalar xalqaro baholash dasturlari tomonidan ham alohida baholanishi haqida yuqorida fikr bildirganmiz.



Yuqoridagi qoida asosida **holatga taqlid so'zlar** qanday bo'lishi haqida qoida yarating.
Misollar keltiring.

186-bet, 6-sinf. Bunda o'quvchilar yuqorida tanishgan qoidalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida holatga taqlid so'zlar uchun qoida va uni ifodalashga oid misol yozishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchidan aynan bir qoida yozib berishi talab etilmaydi. Asosiy e'tibor holatga taqlid so'zlar nima ekanini, qanday vaziyatlarda qo'llanishini tushunish hamda yozgan qoidasini fikrlari bilan asoslay olishiga qaratiladi. Ko'rib turganimizdek, yuqorida aytilgan yondashuvlarning har biri hamkorlik texnologiyasini shakllantirishga oid bo'lib, ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, kommunikatsiya, kollaboratsiya ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi, chunki ushbu yondashuvlarning har birida muayyan bir nutqiy malakani shakllantirish maqsad qilib olingan bo'lib, o'qitish uslubi va vositalarida bunga alohida ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 178 b.
2. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi / I. Azimova / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali // Toshkent. – 2019.
3. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. ped. fan. doktori (DSc). ...diss. – Toshkent, 2020, – 95 b.
4. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. // ped.fan.nom.dis. – Toshkent, 2009. – 126 b.



5. Mavlonova K.M. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 149-154.

6. Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari. Monografiya. Toshkent, 2020.

7. Mavlonova K. va boshq. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

8. Mavlonova K. va boshq. Ona tili 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/CDBK5861

TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna

*filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Orcid: 0000-0002-2104-450X*

Shirinova Yekaterina Turakulovna

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
yekaterina@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0002-9164-5327*

Sattarova D.A.

*Toshkent shahri Yunusobod tumani 260-maktabning o'zbek tili, ona tili va
adabiyot o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolda til ta'limiga pragmatik yonadashuv mavzusi tahlil qilinadi. Til ta'limi jarayonida pragmatik yondashuvning ahamiyati, uning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanishi ko'rib chiqiladi. Maqolada til o'rganish jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, madaniy kontekstda tilning o'rganilishi va tilshunoslikning zamonaviy talablari bilan bog'liq muammolar hamda yechimlar taklif etiladi. Pragmatik yondashuv, asosan, til o'qitish va o'rganish jarayonida kontekstual ma'lumotlarni hisobga olishni, til ma'lumoti va tajribasini integratsiyalashni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: til ta'limi, pragmatik yondashuv, kommunikativ qobiliyat, til o'qitish, madaniy kontekst.

Аннотация

В данной статье анализируется тема прагматического подхода к языковому образованию. Рассматривается значение прагматического подхода в процессе языкового образования, его теоретические основы и применение на практике. В статье предлагаются проблемы и решения, связанные с развитием коммуникативных навыков в процессе изучения языка, изучением языка в культурном контексте и современными требованиями лингвистики. Прагматический подход в основном обеспечивает учет контекстной информации в процессе преподавания и изучения языка, интеграцию языковых знаний и опыта.



Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI	701
Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ	706
Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI	712
Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH	716
Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	721
Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH	727
Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	731
Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	735
Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	742
Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR	747
Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI	752
To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH	756
Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR	762
Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH	767
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR	774
Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI	780
Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH	785
Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI	790

